

MUSTAQILLIK DAVRIDA O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO MUNOSABATLAR  
MODELING EVOLYUTSIYASI.

Paxriddinova Dilxumor Qodirovna  
Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti,  
Farg‘ona davlat universiteti akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar siyosati va bag‘rikenglik tamoyillarining shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlari ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Unda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, “O‘zbekiston - umumiy uyimiz” g‘oyasidan “Yangi O‘zbekiston - bag‘rikenglik diyori” konsepsiyasigacha bo‘lgan evolyutsion jarayonlar yoritilgan. Shuningdek, Konstitutsiyaviy-huquqiy asoslar, milliy-madaniy markazlar faoliyati, fuqarolik birdamligini mustahkamlash va madaniy xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlash masalalari ilmiy nuqtayi nazardan tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik, fuqarolik birdamligi, milliy-madaniy markazlar, Konstitutsiya, Yangi O‘zbekiston, ijtimoiy-falsafiy tahlil.

**Аннотация**

В статье проводится социально-философский анализ этапов становления и развития политики межнациональных отношений и принципов толерантности в Узбекистане. Рассматриваются основные направления государственной политики, реализуемой в годы независимости, а также эволюция концептуальных подходов от идеи «Узбекистан - наш общий дом» к концепции «Новый Узбекистан - край толерантности». Особое внимание уделяется конституционно-правовым основам, деятельности национально-культурных центров, укреплению гражданского единства и поддержке культурного многообразия как важным факторам общественного развития.

**Ключевые слова:** межнациональное согласие, толерантность, гражданское единство, национально-культурные центры, Конституция, Новый Узбекистан, социально-философский анализ.

**Abstract**

This article provides a socio-philosophical analysis of the formation and development of interethnic relations policy and the principles of tolerance in Uzbekistan. It examines the main directions of state policy implemented during the years of independence and highlights the evolution from the idea of “Uzbekistan is Our Common Home” to the concept of “New Uzbekistan - the Land of Tolerance.” The study also focuses on constitutional and legal foundations, the activities of national-cultural centers, the strengthening of civic unity, and the promotion of cultural diversity as important factors of social development.

**Keywords:** interethnic harmony, tolerance, civic unity, national-cultural centers, Constitution, New Uzbekistan, socio-philosophical analysis.

O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar siyosati va bag‘rikenglik g‘oyasi evolyutsiyasini shartli ravishda bir necha bosqichga ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu jarayon “O‘zbekiston - umumiy

uyimiz” shioridan “Yangi O‘zbekiston - bag‘rikenglik diyori” tamoyiliga bosqichma-bosqich o‘tish bilan tavsiflanadi<sup>1</sup>.

**1-bosqich. Mustaqillikning dastlabki davri - millatlararo totuvlik asoslarini shakllantirish (1991-2000-yillar).** Bu davrda mustaqil davlatning millatlararo siyosati uchun asosiy g‘oya “O‘zbekiston - umumiy uyimiz” shiori orqali ifodalandi. Uning mazmuni mamlakat hududida yashovchi barcha millat va elat vakillarini yagona Vatan atrofida birlashtirish, fuqarolik birdamligini mustahkamlashdan iborat edi<sup>2</sup>.

Mazkur bosqichning muhim jihatlari quyidagilardan iborat. Millatlararo totuvlikni davlat siyosati darajasiga ko‘tarish, milliy-madaniy markazlarni tashkil etish, 1992-yilda Respublika Baynalmilal Madaniyat Markazi faoliyatini yo‘lga qo‘yish, turli millat vakillarining til va madaniyatini saqlashga sharoit yaratish<sup>3</sup>.

**2-bosqich. Millatlararo hamjihatlikni mustahkamlash va institutsional rivojlanish (2000-2016-yillar).** Bu davrda millatlararo totuvlik siyosati yanada mustahkamlandi va institutsional jihatdan rivojlandi. “O‘zbekiston - umumiy uyimiz” g‘oyasi amaliy mazmun bilan boyitildi.

Asosiy xususiyatlar:

milliy-madaniy markazlar faoliyatining kengayishi;  
madaniy festival va anjumanlarning ko‘payishi;  
ijtimoiy-siyosiy faollikning oshishi;  
bag‘rikenglik dasturlarining amalga oshirilishi<sup>4</sup>.

**3-bosqich. Yangi siyosiy bosqich - bag‘rikenglik siyosatini modernizatsiya qilish (2017-2021-yillar).** Bu davrda millatlararo munosabatlar siyosati yangi bosqichga ko‘tarildi. Shu jarayonda Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi tashkil etildi<sup>5</sup>.

Asosiy yo‘nalishlar:

millatlararo hamkorlikni rivojlantirish;  
bag‘rikenglik g‘oyasini xalqaro miqyosda targ‘ib qilish;  
madaniy diplomatiya mexanizmlarini rivojlantirish.

**4-bosqich. “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi - bag‘rikenglik tamoyilining yangi bosqichi (2021-yildan hozirgacha).** Ushbu davrda millatlararo siyosat Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida yangi mazmun kasb etdi. Natijada “Yangi O‘zbekiston - bag‘rikenglik diyori” tamoyili shakllandi<sup>6</sup>.

Asosiy yo‘nalishlar:

bag‘rikenglikni global qadriyat sifatida targ‘ib qilish;  
madaniy muloqotni rivojlantirish;  
fuqarolik birdamligini mustahkamlash;

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 80 b.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 31 avgust 1991 yil // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. – 1991. – №11.

<sup>3</sup> Respublika Baynalmilal Madaniyat Markazi faoliyati to‘g‘risida hujjatlar va materiallar to‘plami. – Toshkent, 1992.

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari to‘plami (2000-2016-yillar). – Toshkent: Adolat, 2017.

<sup>5</sup> Shavkat Mirziyoyev. Millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 19 may 2017 yil // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. - 2017. – №21.

<sup>6</sup> Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi 2022-2026 / Shavkat Mirziyoyev. - Toshkent: O‘zbekiston, 2022. - 120 b.

ochiq jamiyat tamoyillarini rivojlantirish<sup>7,7</sup>

**Xulosa.** “O‘zbekiston - umumiy uyimiz” shiori mustaqillikning dastlabki yillarida millatlararo totuvlikni ta‘minlashning ideologik asosini yaratgan bo‘lsa, bugungi kunda “Yangi O‘zbekiston - bag‘rikenglik diyori” tamoyili ushbu g‘oyaning zamonaviy, keng qamrovli va xalqaro miqyosga yo‘naltirilgan bosqichini ifodalaydi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik tamoyillariga asoslangan yangi ijtimoiy model shakllandi. Ushbu modelning huquqiy asosi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilgan. Konstitutsiyada millatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi bir qator muhim normalar belgilangan bo‘lib, ular jamiyatda turli millat va elat vakillarining teng huquqli hamda totuv yashashini ta‘minlashga xizmat qiladi. Xususan, Konstitutsiyaning 4-moddasida O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tili ekani belgilangan bo‘lsa-da, mamlakat hududida yashovchi turli millat va elatlarning tillari, urf-odatlar hamda an‘analari hurmat qilinishi va ularning rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratilishi davlat tomonidan kafolatlanadi. Mazkur norma O‘zbekiston jamiyatida madaniy xilma-xillikni saqlash, milliy qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlash hamda turli etnik guruhlarining o‘zligini asrab-avaylashga xizmat qilmoqda<sup>8</sup>.

Konstitutsiyaning 8-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston xalqini millatidan qat‘i nazar, mamlakat fuqarolari tashkil etadi. Bu qoida O‘zbekiston jamiyatining fuqarolik birlik tamoyiliga asoslanishini ifodalaydi. Ya‘ni, davlatda yashovchi barcha millat va elat vakillari yagona siyosiy hamjamiyat - O‘zbekiston xalqining ajralmas qismi hisoblanadi<sup>9</sup>.

Shuningdek, Konstitutsiyaning 18-moddasida O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati tinchliksevar tamoyillarga asoslanishi belgilangan<sup>10</sup>. Davlat xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlar bilan ikki va ko‘p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlaydi. Bu jarayon ham millatlararo munosabatlarning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi, chunki xalqaro hamkorlik va ochiq siyosat turli madaniyatlar o‘rtasidagi muloqot va o‘zaro hurmatni kuchaytiradi.

Konstitutsiyaning 19-moddasida esa inson huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan normalariga muvofiq e‘tirof etilishi va kafolatlanishi qayd etilgan<sup>11</sup>. Ushbu modda barcha fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat‘i nazar qonun oldida tengligini ta‘minlaydi. Bu esa mamlakatda millatlararo totuvlik, ijtimoiy adolat hamda tenglik tamoyillarini mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda millatlararo munosabatlarning yangi modeli shakllanib, u fuqarolik birlik, milliy tenglik, madaniy xilma-xillikni hurmat qilish hamda inson huquqlarini ta‘minlash tamoyillariga asoslanmoqda. Ushbu model jamiyatda barqarorlikni saqlash, turli millat vakillarining totuv yashashi hamda mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni ta‘minlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayonda milliy siyosatning asosiy maqsadi jamiyatda turli millat va elat vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat, do‘stlik va hamkorlik

<sup>7</sup> Millatlararo munosabatlar sohasidagi davlat siyosati konsepsiyasi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 15 noyabr 2019 yil. – Toshkent, 2019.

<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023. - 4-modda.

<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 8-modda.

<sup>10</sup> Shu manba – 18-modda.

<sup>11</sup> Shu manba –19-modda.

muhitini mustahkamlashdan iborat bo'ldi. Ayniqsa, so'nggi yillarda millatlararo munosabatlarni rivojlantirish, ko'p millatli jamiyatda yagona fuqarolik hamjihatligini shakllantirish hamda yosh avlodni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Ushbu siyosatning huquqiy va institutsional asoslari qator normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, Millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosati konsepsiyasi to'g'risidagi Prezident farmonida o'z ifodasini topgan<sup>12</sup>.

Mazkur farmon mamlakatda millatlararo munosabatlarni rivojlantirishning yangi bosqichini boshlab berdi. Unda jamiyatda millatlararo totuvlikni ta'minlash, turli millat va elat vakillarining tili, madaniyati, urf-odatlarini hamda an'analarini asrab-avaylash va rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Shu bilan birga, ko'p millatli jamiyatda "katta yagona oila" tamoyilini mustahkamlash, fuqarolar o'rtasida o'zaro hurmat va bag'rikenglikni rivojlantirish hamda millatlararo muomala madaniyatini shakllantirish muhim vazifa sifatida e'tirof etildi<sup>13</sup>.

Farmonda qayd etilishicha, O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilib, ular mamlakat Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlangan teng huquq va imkoniyatlardan foydalanib, iqtisodiyot, ilm-fan, madaniyat va ijtimoiy sohalarida samarali faoliyat yuritmoqda. Bu esa O'zbekistonning ko'p millatli jamiyat sifatida rivojlanishida millatlararo totuvlik muhim omil ekanini ko'rsatadi. Turli millat vakillarining mamlakat taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasi jamiyatda fuqarolik birdamligi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, ushbu farmonga muvofiq millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosatini tizimli ravishda amalga oshirish uchun institutsional mexanizmlar takomillashtirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi faoliyati kuchaytirilib, millatlararo munosabatlarni o'rganish, monitoring qilish va ilmiy tahlil qilish vazifalari kengaytirildi. Shuningdek, millatlararo munosabatlar bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazini tashkil etish orqali ushbu sohada ilmiy tahlil va ekspertiza ishlari yo'lga qo'yildi.

Farmonda millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda fuqarolik jamiyati institutlari, milliy madaniy markazlar hamda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish alohida ta'kidlandi. Bu esa jamiyatda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish, ehtimoliy ixtiloflarning oldini olish va bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta'lim, madaniyat va axborot sohalarida millatlararo totuvlikni mustahkamlashga qaratilgan ma'rifiy tadbirlar kompleksini amalga oshirish ham davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi.

Bundan tashqari, farmonda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash hamda O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish vazifalari ham belgilangan. Bu jarayon O'zbekistonning ochiq va tinchliksevar tashqi siyosatini aks ettirib, turli xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro muloqotni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, mazkur farmon mustaqillik yillarida O'zbekistonda millatlararo munosabatlarning yangi modelini shakllantirishda muhim huquqiy asoslardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ushbu model fuqarolik birdamligi, millatlararo totuvlik, madaniy xilma-xillikni hurmat qilish hamda bag'rikenglik tamoyillariga asoslanadi. Natijada O'zbekiston ko'p millatli

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni. – Toshkent, 2019 yil 15 noyabr.

<sup>13</sup> <https://uza.uz/posts/millatlararo-munosabatlar-sohasida-o-zbekiston-respublikasi--18-11-2019>

jamiyatda barqarorlik va ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlashga qaratilgan samarali milliy siyosat modelini shakllantirishga erishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. **Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi 2022–2026.** – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 120 b.
2. Millatlararo munosabatlar sohasidagi davlat siyosati konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2019 yil 15 noyabr. – Toshkent, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 1991 yil 31 avgust // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. – 1991. – № 11.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 80 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2019 yil 15 noyabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2017 yil 19 may // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2017. – № 21.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari to'plami (2000–2016-yillar). – Toshkent: Adolat, 2017.
8. Respublika Baynalmilal Madaniyat Markazi faoliyati to'g'risida hujjatlar va materiallar to'plami. – Toshkent, 1992.
9. UZA. Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi // O'zbekiston Milliy axborot agentligi (UZA).